

**ABDURAHMON GO‘ZALNING TASAVVUF YO‘NALISHDAGI IZLANISHLARI****Dilshoda Xaqqulova**

Osiyo xalqaro universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrası o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Tasavvuf adabiyoti katta tarixga ega. Ammo Abdurahmon Go‘zal yassaviyshunoslikning yangi qirralariga asos solgan olim. Maqolada olimning tadqiq uslubi, tahlillaridagi tayanch manbalardan bahs yuritilgan. Olim izlanishlarining yassaviyshunoslikdagi o‘rni ochib berishga harakat qilingan.

**Kalit so‘zlar:** shariat, tariqat, irfon, ishq, uslub, talqin, yassaviyshunoslik, tasavvuf, nafs

**Аннотация:** Физиология имеет давнюю историю. Но Абдурахман Гозал – учёный, заложивший основы новых аспектов филологии. В статье рассматривается метод исследования учёного и источники в его анализе. Делается попытка раскрыть роль исследований учёного в филологии.

**Ключевые слова:** шариат, тарикат, ирфан, любовь, стиль, толкование, юриспруденция, мистика, нафс.

**Abstract:** Physiology has a long history. But Abdurahman Gozal is a scientist who laid the foundations of new aspects of philology. The article discusses the scientist's research method and sources in his analysis. An attempt is made to reveal the role of the scientist's research in philology.

**Keys words:** sharia, tariqat, irfan, love, style, interpretation, jurisprudence, mysticism, nafs

Turkiy adabiyotda islom dinining mazmun mohiyatiga xos bo‘lgan mavzular tasavvuf adabiyotida alohida o‘rinni egallaydi. Shu bois ajdodlarimiz tasavvuf ilmiga alohida e‘tibor qaratishgan. Adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqulning tasavvuf haqida shunday fikri fikri bor:” Tasavvuf, eng avvalo, insonning o‘z mohiyatini teran idrok qilish va bilish yo‘lidagi og‘ir, qiynoqli intilishlarini ifodalaganidir. Odam farzandining zohiriy bahs-u munozaralari, moddiy manfaat yo‘lidagi har turli tortishuv-talashuvlari, aslida, uning botinidan boshlanadi. ....tasavvuf va tariqatlar, tasavvuf maslagi zaminida shakllangan ma‘naviy hayot bizning madaniyat tariximizda muhim mavqega ega bo‘lgan. Biz nafaqat ilm-fan, adabiyot, san‘at va musiqamizni, hatto tilimiz taraqqiyotini ham tasavvufdan butunlay ajratib tasavvur eta olmaymiz. Urf-odat, milliy qadriyat va muomala-munosabatlarimizning ildiziga yetib bormoq uchun ham tasavvufga murojaat qilishga to‘g‘ri keladi”<sup>1</sup>. “IX asr boshlariga kelib tasavvufning nazariy asoslari ishlab chiqildi, so‘fiylarning amaliy, ruhiy-psixologik mashqlari, o‘z-o‘zini tarbiyalash va chiniqtirish usullari shakllandi. Tariqat, Ma‘rifat, Haqiqat degan tushunchalar yuzaga kelib, tasavvufning ushbu uch qismiga oid qarashlar majmui tuzildi - tasavvuf alohida ilm sifatida qaror topdi. So‘fiylar dastlabki paytlar tasavvufni nuqul sir-u asror, tushuntirib bo‘lmaydigan holatlar (“iboraga kelmaydigan ishoratlar”) deb hisoblagan bo‘lsalar, bora-bora bu holatlar haqida fikr-mulohazalar bayon qilina boshlandi, so‘fiyni tarbiyalash vazifasi, pir-muridlik qoidalari, odobini yaratish zarurati tug‘ildi. Natijada, tariqat va shariat orasidagi munosabatlar, olam, odam va Xudo orasidagi aloqa-muomala mohiyati, tavhid - vahdat masalalari munozaralarga sabab bo‘ldi”<sup>2</sup>.

Tasavvufshunos va adabiyotshunos olim Abdurahmon Go‘zal tasavvuf adabiyotiga alohida to‘xtalib o‘tib, Rizo Tavfiq Bo‘lukbashi bu adabiyotni Tekke adabiyoti deb nom berganligi va xalq adabiyotidan farqli ekanligiga e‘tibor qaratganligi haqida ma‘lumot beradi. Shuningdek, olim tasavvuf adabiyotini xalq

adabiyoti va mumtoz adabiyot orasidagi ko'prik deb, tasavvuf adabiyotini bu ikki adabiyotning uzoqlashishiga to'sqinlik qiluvchi original adabiyot deya baholaydi va tasavvuf adabiyoti tarixiga murojaat qiladi. Tasavvuf adabiyotining uch davrini bosib o'tganligini va bu davrlar va ularning xususiyatlariga alohida to'xtalib o'tadi:

<sup>1</sup>Ibrohim Haqqul haqiqati.Toshkent.2023

<sup>2</sup>Najmiddin Komilov.Tariqat.Xurshid Davron.kh-davron.uz

1. Muhammad alayhissalom davri.
2. Tobeinlar davri.
3. Ilk so'fiylar davri.

Olim XIII asr adabiyotini tasavvuf asri sifatida e'tirof etadi.Bu davrda islom dini keng yoyilib, Buxoro, Samarqand, Farg'ona kabi shaharlarda tasavvuf adabiyotining yirik vakillari yetishib chiqqanligi va bu shaharlar nufuzli tasavvuf markazlari sifatida e'tirof etilganligi haqida fikr yuritadi. Shuningdek, olim o'z tadqiqotida Roziy, Farobiy, Ibn Sino , Qushayriy, G'azzoliy kabi shu zaminda yetishib chiqqan buyuk olimlarning nomlarini keltirib o'tadi. Xususan, Ahmad Yassaviyni tasavvuf olamida alohida o'ringa ega, keng ufq ochgan siymo sifatida e'tirof etadi."Ahmad Yassaviy, Mansur ota, Xorazmlik Sayid Ota, Sulaymon Hakim Ota Luqmon Parranda, Mavlono Hoji Bektosh Valiylar kabi xalifalari va minglarcha muridlarni yetishtirib, Anado'lu va Bolqonlarga yubordilar. Yassaviy tariqati dastlab Turkistonda, so'ngra boshqa mintaqalarda tez fursatda keng yoyildi. O'rta Osiyo Ozarbayjon, Onado'li va Volga bo'yida yashovchi turkiy xalqlarlar orasida keng yoyilishiga sababchi bo'lgan tasavvufshunos Hoja Ahmad Yassaviydir"<sup>3</sup>. Olim Yassaviyni turkiy xalqlar orasida ilk so'fiy shoir deb e'tirof etadi. Shuningdek, tasavvuf adabiyotining ikki zabardast vakili Muhiddin Arabiy va Jaloliddin Rumiya ham alohida to'xtalib o'tadi.Bundan tashqari, Yunus Emro, Sulton Valad, Oshiq Poshsho, Qayg'usiz Abdol, Said Emro kabi so'fiy shoirlar haqida ham alohida to'xtalib o'tadi.

Adurahmon Go'zal tadqiqotida Ahmad Yassaviyning hayot yo'liga alohida e'tibor qaratadi. Yassaviy Ahmad Yassaviy ota-onasidan juda erta yetim qolib, opasi Gavhar Shahnoz bilan Yassiga borib tahsil oladi va shu shaharda piri Arslon Bob bilan uchrashganligi haqida ma'lumotni ko'rish mumkin. "Ahmadning otasi Shayx Ibrohim ko'pdan-ko'p karomat va manqabalari bilan atrofga tanilgan bir mutasavvufli bois silsilasi nuqtai

<sup>3</sup>Türk halk edebiyatı El kitabı.Prof.Dr.Abdurrahman Güzel.Prof.Dr.Ali Torun.AcÇağ.459-bet.

nazaridan ma'nan zo'r bir mavqega erishgan yosh Ahmad ham tez dong qozongandi. Arslonbob vafotidan so'ng islomiy ilmlarning markazi Buxoroga boradi"<sup>4</sup>. Shuningdek, Yassaviyning Buxoroga borib, u yerda davrining mashhur mutasavvif va hadis olimi Yusuf Hamadoniydan ham ilm, ham ma'nan fayz olishga musharraf bo'lganligi xususida o'z hikmatlarida aytganligini ta'kidlaydi:

Man yigirma yeti yoshda pimi topdim.

Har sir ko'rdum, parda birla bukub yopdim.

Ostonasin yostanibon izin o'pdim.

Ul sababdin Haqqa sig'nib keldim ma'no.

Yusuf Hamadoniy mashhur olim bo'lib, Iroq, Xuroson, Movarounnahrning ko'p shaharlarida yashab xalqni Haq yo'liga da'vat etgan. Ahmad Yassaviy Yusuf Hamadoniy

hayotligida uning uch muridi qatorida xalifalikka erishganligiga e'tibor qaratiladi. Xoja Abdulloh Barraqiy va Xoja Hasan Andoqiyning o'limidan keyin bir muddat xonaqoh shayxi sifatida ish ko'radi. Oncha vaqt o'tgach muridlarini to'rtinchi xalifa Xoja Abdulkholiq

G'ijduvoniya topshirib, Turkistonga - Yassiga qaytadi. Ahmad Yassaviyning Yassida istiqomat qilgan yillarida uning atrofiga minglab murid yig'ilganligi xususida ma'lumot beradi. O'sha paytlarda din va tasavvuf targ'ibiga ehtiyoj nihoyatda kuchli bo'lganligi, islom dini Osiyoning har go'shasida nufuzga

erishgan, hatto har tomonda madrasa va xonaqohlar bino qilingan bir davrda Ahmad Yassaviy Sirdaryo bo'ylarida, Toshkent atroflarida shuhrat

taratgan. Olim Yassaviyning Yassida tasavvufiy tushunchalarini omma anglay oladigan bir tilda, ya'ni turkiyda ifodalab bergani uchun ko'pchilikning muhabbatiga sazovor bo'lganligini, hikmatlarida aks ettirilgan tasavvufning insonsevarlik, do'stlik, bag'rikenglik, birlik-tenglik, qanoatlilik va boshqa tushunchalari uni odamlarga yaqinlashtirganligini ta'kidlaydi. Yassaviyning har bir muridlari va uning sifatlarini birma-bir sanab o'tganligiga to'xtalib o'tadi.

<sup>4</sup> Abdurahmon Go'zal.Yassaviy. "Faqrnomasi Toshkent" Navro 'z' nashriyoti.2014.14-bet Shuningdek, Yassaviyning qipchoq-turklar orasida ham xalifalari bor bo'lganligini Husomiddin bin Sharofiddin 1584-88 yillarda yozilgan "Risoi tavorixi Bulg'oriya" asaridagi ma'lumotlarga tayanib e'tirof etadi. Bundan tashqari bu risolada eski shayxlardan bo'lgan XV asrda Bulg'oristonga borib, u yerda alp-eranlik vazifasini ado etgan Temur bobo ham Yassaviyning xalifasi ekanligi haqida ma'lumot mavjudligi aytib o'tilgan.

Abdurahmon Go'zalning "Yassaviy "Faqrnoma"si" kitobida bu istiloh haqida mulohaza yuritadi."Faqrnoma" asos e'tibori bilan faqrni, faqrning ahamiyati va maqomlarini anglatadigan mustaqil didaktik asar bo'lganidek, tasavvuf tabaqot kitoblaridan alohida bir bo'lim sifatida o'rin olgan asar ham bo'lishi mumkin degan fikrga keladi, chunki bunday asarlarda diniy, tasavvufiy axloqiy, ijtimoiy, ommani birlashtiruvchi mavzular yoritilgan degan to'xtamga keladi. Shuningdek, "Faqrnoma"lar jamoat ehtiyoji, ko'zlangan asosiy maqsadga qarab nazm yoki nasr shaklida yozilganligi aytib o'tilgan. Ularning yetakchi g'oyasini tashkil etgan faqr oddiy bir hayot kechirgan, dunyo ne'matlarini nazarga ilmay oziga qanoat qilgan, nafsiga tobe bo'lmagan Tangridan boshqasiga bo'yin egmagan Allohparast kishilarning ma'naviy-axloqiy ahvolini ifodalashga xizmat qilganligini shunday sifatlariga ega bo'lgan faqir tariqatdagi maqom va martabalarni birma-bir bosib o'tib sayri sulukni nihoyaga yetganligi xususida fikr bildiradi. "Bu martaba fanofilloh deyilganki, uning mazmuni o'z borlig'ini Tangri borlig'iga fone aylash, ya'ni Tangri bilan birlikka yetishuvdan iborat"<sup>5</sup>. Shuningdek, olim "Faqrnoma"ni kimlar o'rganganligi xususida ham to'xtalib o'tadi. Turkiyada ilk bor professor Kamol Eraslon tadqiq etib, yaqin paytlargacha unga mustaqil bir asardan ko'ra "Devoni hikmat"ning mansur bir muqaddimasi deb qaralib kelinganligini ta'kidlaydi. Bunga sabab qilib uning "Devoni hukmat"ning qo'lyozma nusxalarida emas, Toshkent va Qozon nashrlaridan joy olganligidir degan fikrga keladi.

<sup>5</sup> Abdurahmon Go'zal.Yassaviy. "Faqrnomasi Toshkent" Navro 'z' nashriyoti.2014.14-bet

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

16. Ikromova, S. A. (2024). BASICS OF PSYCHOLOGICAL SERVICES. PEDAGOG, 7(5), 670- 676.
17. Akbarovna, I. S. (2024). THE IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL MANAGEMENT IN EDUCATION. PSIXOLOGIYA VA SOTSIOLOGIYA ILMIY JURNALI, 2(4), 40-46.
18. Akbarovna, I. S. (2024). PSIXOLOGIK XIZMAT ASOSLARI. PSIXOLOGIYA VA SOTSIOLOGIYA ILMIY JURNALI, 2(4), 54-60.
19. Akbarovna, I. S. (2024). STAGES OF PSYCHOLOGICAL CONSULTATION. PEDAGOG, 7(4), 328-334.
20. Икромова, С. А. (2023). ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИММУНИТЕТА К ДЕСТРУКТИВНЫМ ИДЕЯМ У ПОДРОСТКОВ. European research, (3 (81)), 47-49.
21. Ikromova, S. (2024). PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA SHAKLLARI VA MAZMUNI. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 918-924.
22. Ikromova, S. (2024). FORMS AND CONTENT OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGY. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 933-939.
23. Akbarovna, I. S. (2024). MASTERING THE BASICS OF PEDAGOGICAL SKILLS. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 882-887.
24. Akbarovna, I. S. (2024). PEDAGOGIK MAHORAT ASOSLARINI O'ZLASHTIRISH. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 888-893.
25. Akbarovna, I. S. (2024). THE IMPORTANCE OF FORMING MATHEMATICAL CONCEPTS. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 912-917.
26. Akbarovna, I. S. (2024). МАТЕМАТИК TUSHUNCHALARNI SHAKLLANISHINING AHAMIYATI. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 900-905.
27. Икромова, С. А. (2024). ЭТАПЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КОНСУЛЬТАЦИИ. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 875-881.
28. Akbarovna, I. S. (2024). PSIXOLOGIK MASLAHAT BOSQICHLARI. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 860-866.
29. Akbarovna, I. S. (2024, April). BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINFDAN TASHQARI MASHG 'ULOTLAR. In International conference on multidisciplinary science (Vol. 2, No. 4, pp. 27-32).
30. Akbarovna, I. S. (2024, April). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TA'LIM MASALASI. In International conference on multidisciplinary science (Vol. 2, No. 4, pp. 21-26)